

“MAYIZ YEMAGAN XOTIN” HIKOYASIDA PERSONAJLAR NUTQI

Ibodova Aziza Inomjon qizi

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola taniqli yozuvchi Abdulla Qahhorning “Mayiz yemagan xotin” hikoyasidagi qahramonlar nutqini atroflicha yoritib beradi. Shuningdek, badiiy nutq uslubi, ma’no ko‘chishda ishtirok etgan so‘zlar hamda iboralar tasviri to‘g‘risida fikr yuritiladi. Maqolada hikoyadagi personajlarning ichki va tashqi nutqi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: nutq, badiiy asar tili, badiiy nutq uslubi, iboralar, ma’no ko‘chish turi, ichki va tashqi nutq.

Annotation: This article provides a detailed analysis of the speech of the characters in the famous writer Abdulla Qahhor's short story "*Mayiz yemagan xotin*". Additionally, it discusses the artistic speech style, words, and phrases involved in semantic shifts. The internal and external speech of the characters in the story is also examined.

Keywords: speech, language of a literary work, artistic speech style, phrases, types of semantic shifts, internal and external speech.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируется речь персонажей в рассказе известного писателя Абдуллы Каххара «*Майиз емаган хотин*». Кроме того, рассматриваются художественный стиль речи, слова и выражения, участвующие в переносе значений. Также проводится анализ внутренней и внешней речи персонажей рассказа.

Ключевые слова: речь, язык художественного произведения, стиль художественной речи, выражения, виды переноса значений, внутренняя и внешняя речь.

KIRISH. Har bir davrning o‘ziga xos mashhur adiblari bo‘lganidek, XX asrning taniqli, zabardast va qalami o‘tkir yozuvchilaridan biri, buyuk hikoyanavis ijodkor Abdulla Qahhor hisoblanadi. Uning yoshligi ham boshqa yozuvchilar kabi mashaqqatli, qiyinchiliklarga boy bo‘lib o‘tganiga qaramasdan, o‘qishga bo‘lgan intilishi so‘nmagan. Abdulla Qahhor o‘zidan hech kimnikiga o‘xshamagan yo‘nalish qoldirdi. U o‘zbek adabiyotida o‘zining hikoyalarida ishlatilgan epigraflari bilan boshqa adiblardan farq qiladi.

“U boy tajribali, badiiy so‘z san’atini puxta egallagan yozuvchidir. Uning barcha asarlarini kitobxonlar katta e’tibor bilan sevib o‘qiydilar. Uning tili va uslubi katta masterlar darajasida. Xarakterlari aniq, bir-biridan keskin ajralib turadi”¹. Abdulla Qahhor hikoyachilik janrida barakali ijod qilgan, uning “Mayiz yemagan xotin”, “Ming bir jon” kabi hikoyalari orqali o‘sha davr insonlarining ma’naviy qiyofasi ochib beriladi. Bundan tashqari, yozuvchi hikoya orqali xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o‘rni va ularning ishlashiga bo‘lgan qarshiliklari haqida so‘z yuritadi.

Adib hikoyalarini tahlil qilar ekanmiz, qahramonlar nutqidagi o‘ziga xosliklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish, frazemalarga murojaat qilish hollarini ham uchratamiz. Umuman, yozuvchi til elementlaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratadi. Qahramonlar xarakterini ochishda ichki va tashqi nutqdan o‘rinli foydalanadi.

Nutq – bu til deb ataluvchi, ijtimoiy-individual noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari, imkoniyatning obyektiv borliq, tafakkur hamda vaziyat bilan o‘zaro zaruriy, doimiy munosabatda namoyon bo‘lishidir². Bizning borligimizni ko‘rsatadigan, bor tafakkurimiz, ongimiz va fikrimizdagi mavjud so‘zlarni yozma va og‘zaki nutqimiz orqali bayon etamiz. Asar qahramonlari ham o‘zining ichki va tashqi nutqiga ega. Kishilarning o‘z-o‘ziga xayolan tovushlarni - so‘zlarni talaffuz qilmasdan fikrlashi, mulohaza yuritishi, o‘ylashi bu ichki nutqdir. Yozuvchilar badiiy obraz orqali ichki nutqni ifodalaydilar. Unda obraz o‘z-o‘ziga sarhisob berishi, xayolan kim bilandir suhbatlashishi, o‘y-xayollar orqali qandaydir muammolarni hal etishi mumkin. Bularning barchasi ichki nutq orqali amalga oshiriladi³.

“Mayiz yemagan xotin” hikoyasidagi qahramonlar nutqiga to‘xtaladigan bo‘lsak, hikoyani o‘qish davomida asar qahramonlarining ma’naviy qiyofasi va odobini nutq belgilab berganining guvohi bo‘lamiz. Asarning bosh qahramoni bo‘lgan Norqo‘zining g‘iybatchiligi va ilmsizligini quyidagi parchada ko‘rishimiz mumkin “...Sotiboldining xotini dorixonada ishlaydi, har kuni mingta odam bilan javob-muomala qiladi: axir, bittasi bo‘lmasa bittasi ko‘z qisadi-da! Meliqo‘zining xotini avtobusda konduktor, ba‘zan yarim kechasi keladi; ishi erta

¹ Oripov A., Alimov B., Muhammedov G‘., Nazarov B., Normatov U., Jabborov N., Karimov B. Adabiyotimiz faxri. – Toshkent : O‘zbekiston , 2007–B.4 .

² Nasrullayev E., Isroilova F., Djo‘rayeva M. O‘qituvchi nutq madaniyati . -Toshkent: Navro‘z , 2021–B.21.

³ Nasrullayev E., Isroilova F., Djo‘rayeva M. O‘qituvchi nutq madaniyati . -Toshkent: Navro‘z , 2021–B.23.

tugagan kuni ham yarim kechgacha yursa, ayshini qilib yursa eri bilib o'tiribdimi? Izzatillaning singlisi bo'lsa artist- xaloyiqqa qarab muqom qiladi. Norbo'taning qizi doktorlikka o'qiydi, mingta oshnasi bor desang-chi! Erkaklarning ichida yurgandan keyin nima bo'lar edi! Bo'yga yetib qolgan qizlarini maktabga yuborgan otalarga hayronman... Shular xotining yoki qizining o'ynashlik qilib turgani ustiga kirsachi, qur'on ursin agar, "benavat" deb chiqib ketadi... Puxta gap shu!"⁴. Mulla Norqo'zi har bir ayollar harakatidan buzuqlik dalolatlarini qidiradi, faqatgina u uchun paranjisini yechishni or hisoblaydigan xotini yaxshi, xolos.

"Ayol kishi erkakka qo'l berib so'rashdimi, bas!.. Ro'za tutgan kishi og'zini chayqasa, suv tomog'iga ketmasa hamki, ro'zasi ochiladi – shu og'iz chayqashdan bahra oladi-da! Abdulhakimning qiziga usta Mavlonning o'g'li bir hovuch mayiz berganini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Hayo bormi shularda? Shariat yo'li – xo'p yo'l. O'n bir yasharida parangi yopinmagan qizdan qo'lni yuvib qo'ltiqqa ura bering. Parangi hayotning pardasi-da!"⁵. Bu hikoya parchasida Mulla Norqo'zining ayollarning parangisi haqidagi o'y-kechinmalari aks ettirilgan.

O'pkadan chiqqan havoning nutq a'zolariga ta'siri natijasida ularning harakati bilan aniq tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq tashqi nutqdir. Tashqi nutq orqali insonlar bir-biri bilan muloqotga kirishadi. O'zaro fikr almashishadi, muammolarini ijobiy hal etishga harakat qilishadi. Bularning barchasi inson nutqi orqali, ya'ni tashqi nutq orqali ifodalanadi⁶. Tashqi nutqqa misol qilib: "Bir kuni kechqurun mulla Norqo'zi hovlida cho't urib o'tirar, xotini esa namozshomgullarga suv quyar edi. Shu onda hovlining ustidan pastlab uchgan samolyot o'tib qoldi. Xotin chars badanaday pitirlab, qochmoqchi bo'lganida yuzini kannakgulning poyasiga urib oldi. Yuzi butoqqa yomon tegdi. Ko'ngli ozdi. – Axir, muncha! – dedi mulla Norqo'zi, – samolyot past ko'ringani bilan undagi kishiga sen juda ko'ringaningda chumolicha ko'rinsan. – Chumolicha ko'rinsam ham ko'rinar ekanman-ku ishqilib! – dedi xotin yig'lamsirab. Mulla Norqo'zi hazil bilan uning alamini bosmoqchi bo'ldi: –E, hali men seni ochaman deb yuribman-ku! Xotin uning yuziga xo'mrayib qaradi-da, keyin zarda qilib, uyga kirib ketdi va qorong'u uyning allaqaysi burchagidan uning

⁴ A. Qahhor . Anor hikoyalar to'plami- Toshkent : G'afur G'ulom nashriyot uyi . 2012-B.-86.

⁵ A. Qahhor . Anor hikoyalar to'plami- Toshkent : G'afur G'ulom nashriyot uyi . 2012-B.86.

⁶ Nasrullayev E., Isroilova F., Djo'rayeva M. O'qituvchi nutq madaniyati . -Toshkent: Navro'z , 2021-B.24

tovushi eshitildi: –Har kimning go‘ri boshqa... Zerikkan bo‘lsangiz, u dunyo bu dunyo yuzimni qora qilmasdan, javobimni bera qoling. ... U bir hafta bo‘yi qovog‘ini ochmadi, uch kecha o‘rnini boshqa solib yotdi. Mulla Norqo‘zi o‘sha gapni hazillashib aytganini arz qilish uchun oldidan kelsa tishlar, ketidan kelsa tepar edi; bir kechasi gapni xotinining diyonatli, pokdomonligidan boshlagan edi, xotin ancha yumshadi.– Hazilingiz qursin! – dedi chiroqni pastlatayotib, kishining imonini qochiradi. Ochilish u yoqda tursin, ochiq xotinlarning yuzini ham ko‘rmayman, deb ont ichganman. Bir kuni besh-oltita ochiq xotin orasiga kirib qolib, ne vaqtgacha ko‘nglim g‘ash, ta‘bim kir bo‘lib yurdim. Tushimda rahmatlik dadamni ko‘rdim, men bilan gapirishmadilar. Gapni ko‘ring-a, aytgani kishining yuzi chidamaydi: begona erkakning qo‘li oq sochni qoraytirar emish. Tavba qildim...”⁷.

Bu parchada Norqo‘zi va xotini o‘rtasidagi muloqot tashqi nutq hisoblanadi. Hikoyada ko‘proq obrazlar tashqi nutqdan foydalanadi. Hikoyada Norqo‘zi o‘zining xotinini choyxonada maqtaydi, ammo bu maqtovlarining oxiri yaxshilik bilan tugamadi. Albatta, hech qachon yopiq qozon yopiqligicha qolib ketmaydi, har bir sir bir kunmas-bir kun yuzaga chiqadi. Mana shunday holat Norqo‘zining hikoya boshida imonli deya atalgan xotinida sharmandalarcha ochib berildi. Bunday ishning sodir bo‘lishiga, shubhasiz, Norqo‘zining aybi katta, chunki u xotiniga haddan ziyod ishonar, paranjingni ochaman deganda xotinining gaplashmay qo‘yganligi uchun uni juda taqvodor deb bilar edi. Asil haqiqat ochilsa ham Mulla Norqo‘zi yana o‘sha ishi, ya‘ni odamlarni g‘iybat qilishdan qaytmadi, xotinining qilgan ishi unga dars bo‘lmadi. O‘zi sharmandali bo‘lishiga qaramay qo‘shni qizning usta Movlonning o‘g‘lidan olgan bir xovuch mayizini gapiradi. Hikoyaning eng achinarli joyi shundaki, erkaklar birovning g‘iybatini qilguncha o‘zining xotinini vaqtida bu sharmandali yo‘ldan qaytarolmaganligidir. Agar Mulla Norqo‘zi ko‘chadagi xotin-qizlarni gapirguncha o‘zining xotiniga e‘tiborli bo‘lganda edi, asar oxirida el-yurt oldida bunday mazlum bo‘lmas edi.

Asosan, hikoya orqali erkaklarning bilib-bilmay ig‘vo va g‘iybatlarga aralashishi, ayollarning ishlashiga bo‘lgan qarshiliklar ochiq-oydin o‘z aksini topadi. Ba‘zi qo‘shirnoq ichidagi erkaklar ayollarning o‘qimishli bo‘lishiga qarshi chiqadi. Albatta, g‘iybat qilish erkaklarga xos bo‘lmagan eng yomon illatlardan biri hisoblanadi. Mulla Norqo‘zi ayollarning paranjisi-yu, qayerda ishlash-ishlamasligini gapirar ekan, o‘zining qanchalar tuban kishi

⁷Qahhor A. Anor hikoyalar to‘plami- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi, 2012. –B.87.

ekanligini ko'rsatib beradi. O'sha davrda xotin-qizlarning iymoni bo'lmish paranjili xotinlarning g'iybatini qiladi, unga faqatgina yetti qavat ichida o'tiradigan xotini yaxshi.

Bundan tashqari asarda ma'no ko'chish turlaridan ham o'rinli va samarali foydalanilgan. Metonimiya yunoncha so'z bo'lib, "yangi nom qo'yish" ya'ni "nomni o'zgartirish" demakdir. Ikki narsa o'rtasidagi aloqadorlik asosida metonimiya hosil bo'ladi⁸. Masalan, "...mulla Norqo'zi har kuni bozordan qaytib samovarga chiqadi va ko'ngli tortgan odamlarni atrofga to'plab, yarim kechgacha shariatdan yuz o'girgan xotinlar to'g'risida shunday vaysab o'tiradi, ba'zan paranjisini yozib, o'zi bilgan oilalarni sanab chiqadi"⁹. Bu hikoyada "samovar" so'zi orqali metonimiya usulida ma'no ko'chish yuzaga chiqqan, bunday metonimik ifoda orqali choyxona ya'ni choy ichib tamaddi qilinadigan jamoat joyi kabi subyektiv ma'nolar aks ettirilgan.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor ushbu hikoyasi orqali jamiyatdagi erkaklarning ma'naviy qiyofasini achchiq misollar bilan ochib beradi. Mana shunday erkaklar tufayli ko'plab xotin-qizlar na biror joyda ishlay olar edi, na o'qir edi. O'qigan ayolning jamiyatga foydasi tegsa tegadiki ziyoni tegmaydi. O'sha davrda o'qigan xotin-qizlarning kamligi tufayli Norqo'ziga o'xshagan hudbin insonlar jamiyatning rivojlanishida ayollar ishtirok etishini xohlamagan. Lekin ayollarning ishlashi, o'qishi yoki paranjisiz yurishi ularning iymonsiz ekanligini ko'rsatmaydi. Abdulla Qahhor hikoyalari hazilomuz va yengil o'qilishiga qaramasdan o'zining katta falsafiy ma'noga ega ekanligi bilan boshqa asarlardan tubdan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nasrullayev E., Isroilova F., Djo'rayeva M. O'qituvchi nutq madaniyati. –Toshkent: Navro'z, 2021. –B.21.
2. Oripov A., Alimov B., Muhammedov G'., Nazarov B., Normatov U., Jabborov N., Karimov B. Adabiyotimiz faxri. –Toshkent: O'zbekiston, 2007. –B. 4.
3. Qahhor A. Anor hikoyalar to'plami. –Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi. 2012. –200-bet.

⁸ Nasrullayev E., Isroilova F., Djo'rayeva M. O'qituvchi nutq madaniyati . –Toshkent: Navro'z, 2021. –B.114 b.

⁹ A. Qahhor . Anor hikoyalar to'plami- Toshkent : G'afur G'ulom nashriyot uyi . 2012–B.86.